



## POMIDORNI ISSIQXONA OQQANOTIDAN HIMOYA QILISH

**S.A.Mirzaeva**

*dotsent,*

**L.Ermatova**

*magistr,*

**S.Xoldarova**

*talaba*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas qolaversa Mamlakatimizda sabzavotchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va mahsulot eksport salohiyatini kuchaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda sabzavot ekinlari ichida ommabop va eng ko'p tarqalgani pomidor bo'lib, maydoni va yalpi hosili bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Sabzavot ekinlar umumiy maydonining 40-45 % ini pomidor tashkil etadi. Ishlab chiqarilgan hosilning 80 % i qayta ishlanadi.

Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim rol o'ynaydi. Sabzavotchilik qishloq ho'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sabzavot mahsulotlarini chet elga eksport qilish bo'yicha bir qator horijiy davlatlar bilan kelishuvlar imzolangan. Sabzavot ekinlarini zararli organizmlardan himoyalash davlat miqyosidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Okkanotlar tengkanotlilar (Homoptera) turkumining aleyrodid yoki okkanotlar (Aleyrodidae) oilasiga mansub. Ularning kariyb 1200 turi aniklangan (Byrne, Bellows, 1991). O'zbekistonda ularning 4 ta turi aniklangan. G'o'zaga asosan 2 turi zarar keltiradi: issiqxona (*Trialeurodes vaporariorum* Westw) va g'o'za (tamaki) (*Bemisia tabaci* Genn) okkanotlari, sitrus daraxtlarini - sitrus okkanoti (*Dialeurodes citri*), karamni – karam okkanoti (*Aleyrodes proletella*) zararlaydi [1].

Issiqxona oqqanoti - *Trialeurodes vaporariorum* West. Homoptera turkumi Aleyrodidae oilasiga mansub xashoratdir.. Oqqanot yozda issiqxonalaridan migratsiya qilib ochiq dalada ko'payishi natijasida issiqxonalariga yaqin bo'lgan joylarda g'o'za va sabzavot boshqa bir qancha qishloq xo'jalik ekinlariga kuchli zarar keltirmoqda. Issiqxona oqqanoti o'tgan asirning so'nggi 70- yillaridan boshlab zarar keltira boshlanganligi aniqlangan. Aleyrodidlar oilasini vakillari. O'zbekiston sharoitida issiqxona, g'o'za va sitrus oqqanotlari ko'proq zarar yetkazadi. Issiqxona oqqanoti (*Trialeurodes vaporariorum* West.) X.X. Kimsanboev A.Qodirov, va boshqalar,



ma'lumotlariga qaraganda g'oz, pomidor, bodring, baqlajon, no'xat, kungaboqar, tamaki va boshqa ko'pgina ekinlarni zararlaydi.

Issiqxona oqqanoti o'simlikni so'rib, undagi ozuqa moddalarni kamayishiga olib keladi, shuningdek zararkunandaning bilvosita ta'siri xam mavjud: oqqanot oziqlanayotgan vaqtda chiqargan suyuqlikda saprofit zamburug'lar rivojlanib, barg sathini qoplab qoladi, natijada o'simlikda normal biokimyoviy jarayon kechishi buziladi, o'simlik zaiflashadi, xosilga putur yetadi, ayniqsa, vegetatsiya davri boshlaridagi zararlanish tufayli o'simlik butkul nobud bo'ladi [3].

Pomidorda issiqxona oqqanotining biologiyasi, zararini o'rganish va unga qarshi samarali kurash choralarining biologik samaradorligini aniqlash maqsadida Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti issiqxona sharoitida Sh.T.Xo'jaev (2004) tahriri ostida nashr etilgan «Uslubiy ko'rsatmalar» va O'zO'XQITI uslublari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqotlarimizda 2 variantda Admiral, 10% em.k. insektitsidini 0,5 l/ga, 3 variantda Kalipso, 48 % sus.k insektitsidini 0,15 l/ga issiqxona oqqanotga ta'siri o'rganildi. va tajribaning biologik samaradorligi Abbot (1925) formulasiga asosan aniqlandi. Jadvaldan ko'rinib turganidek, qo'llanilgan preparatdan 83,5 % biologik samaradorlikka erishildi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Хўжаев Ш.Т. “Ўсимликларни зараркунандалардан химоя қилиш, ҳамда агротоксикология асослари”. Тошкент 2014 й.
2. Хўжаев Ш.Т. Инсектицид, акарицид ва биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар//Тошкент.-2004.-Б.37-48.
3. Мирзаева, С.А., Саидганиева, Ш.Т., & Мамадалиев М. Биология *Trialeurodes vaporariorum* вред и борьба с ним. ББК 65.2 С56, 149.



1-jadval

ISSIQXONA OQQANOTI (*Trialeurodes vaporariorum* West) GA QARSHI QO'LLANILGAN KIMYOVIY  
KURASHNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

| №  | Variantlar                    | Preparat sarf-meyori, l/ga | Tekshirish muddati | Preparat qo'llanilgunga qadar oqqanot soni (1 bargda/dona) | Samaradorlik, % hisobida, kunlarga |      |      |      |      |      |      |      | O'rtacha biologik samaradorlik |
|----|-------------------------------|----------------------------|--------------------|--|------------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|--------------------------------|
|    |                               |                            |                    |  | 3                                  |      | 7    |      | 14   |      | 21   |      |                                |
|    |                               |                            |                    |  | ZS                                 | BS   | ZS   | BS   | ZS   | BS   | ZS   | BS   |                                |
| 1. | Nazorat                       | -                          | 1.05.16            | 33,2   | 33,2                               | -    | 34,6 | -    | 38,2 | -    | 41,4 | -    | -                              |
| 2. | Andoza - Admiral, 10% em.k    | 0,5                        | 1.05.16            | 29,5   | 6,4                                | 75,6 | 5,5  | 78,8 | 4,6  | 80,4 | 3,5  | 79,0 | 78,3                           |
| 3. | Tajriba - Kalipso, 48 % sus.k | 0,15                       | 1.05.16            | 30,0   | 6,0                                | 80,0 | 5,8  | 80,7 | 4,6  | 84,7 | 3,4  | 88,7 | 83,5                           |

Legenda: ZS – zararkunandalar soni, BS – biologik samaradorlik